

INTELLEKTUAL MULK HUQUQI VA UNI HIMOYA QILISH, UNDAN FOYDALANISH MASALALARI

To'xsanov Mansurbek Nemat o'g'li

Sirdaryo viloyati yuridik texnikumi Mutaxassislik fanlari o'qituvchisi

Telefon: +998997435193

mansurbektosxanov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14510005>

Annotatsiya. Ushbu maqola bugungi zamaonaviy jamiyatda tobora nufuzi ortib borayotgan intellektual mulk huquqi va uni himoya qilish, undan foydalanish masalalariga bog'liq ma'lumotlarni beradi va bu borada fikr-mulohaza yuritadi. Jumladan, intellektual mulk huquqining paydo bo'lish tarixiga nazar ham soladi

Kalit so'zlar: intellekt, intellektual mulk, mualliflik huquqi, sanoat mulk huquqi, Jahon intellektual mulk tashkiloti, intellektual mulk ob'yekti, intellektual faoliyat.

INTELLECTUAL PROPERTY RIGHTS AND ISSUES OF THEIR PROTECTION AND USE

Abstract. This article provides information and comments on the issues of intellectual property rights, which are increasingly gaining importance in modern society, and on the issues of their protection and use. In particular, it also looks at the history of the emergence of intellectual property rights.

Keywords: intellect, intellectual property, copyright, industrial property rights, World Intellectual Property Organization, intellectual property object, intellectual activity.

ВОПРОСЫ ПРАВА ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ, ЕГО ЗАЩИТЫ И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье представлена информация о правах интеллектуальной собственности, которые приобретают все большее влияние в современном обществе, и вопросах, связанных с их защитой и использованием, а также комментарии по этому вопросу. В частности, рассматривается история возникновения прав интеллектуальной собственности.

Ключевые слова: интеллект, интеллектуальная собственность, авторское право, право промышленной собственности, Всемирная организация интеллектуальной собственности, объект интеллектуальной собственности, интеллектуальная деятельность.

Intellektual mulk - ijodiy aqliy faoliyat mahsuli. Ixtirochilik va mualliflik ob'yekti huquqi majmuiga kiruvchi, fan, adabiyot, san'at va ishlab chiqarish sohasida ijodiy faoliyatning boshqa

turlari, adabiy, badiiy, ilmiy asarlar, ijrochi aktyorlik san'ati, jumladan ovoz yozish, radio, televideniye asarlari, kashfiyotlar, ixtirolar, ratsionalizatorlik takliflari, sanoat namunalari, kompyuterlar uchun dasturlar, ma'lumotlar bazasi, nou-xauning ekspert tizimlari, tovar belgilari, firma atamaları va boshqa aqliy mulk ob'ektlariga kiradi. Hozirgi davrda intellektual mulkni muhofaza qilish muhim vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil dek. da Jahon intellektual mulk tashkilotiga a'zo bo'ldi, 1993-yildan sanoat mulkini muhofaza qilish Parij konvensiyasiga qo'shilgan. ^[1]

Mulk egasi ana shu intellektual mulk ob'ektlaridan o'z xohishiga ko'ra, har qanday shaklda va har qanday usulda mutlaq qonuniy foydalanish huquqiga egadir. Huquq egasiga mutlaq huquq asosida tegishli bo'lgan intellektual mulk ob'ektlaridan boshqa shaxslarning foydalanishiga faqat huquq egasining roziligi bilangina yo'l qo'yiladi (O'zbekiston Respublikasi FK, 1034-modda). Ba'zi ob'ektlarga nisbatan (ixtiro, sanoat namunasi, foydali model, individuallashtirish vositalari (tovar (xizmat) belgisi, firma nomi va sh. k.)) mutlaq huquq davlatning vakolatli organi tomonidan beriladigan maxsus hujjat – patent, guvohnoma asosida vujudga keladi va huquqiy muhofaza qilinadi.

Intellektual mulk ob'ektlari fuqarolik huquqining boshqa ob'ektlari – ashyolar, qimmatbaho qog'ozlardan quyidagi xususiyatlari bo'yicha farq qiladi: a) ko'p hollarda ular moddiy ko'rinishda emas, balki g'oya, bilim, axborot shaklida namoyon bo'ladi; b) g'oya, bilim shaklidagi intellektual mulk ob'ektiga odatdagi moddiy ashyoga egalik qilganday egalik qilish mumkin emas; c) shaxslar bunday ob'ektlardan ayni bir vaqtning o'zida cheksiz doirada foydalana olishi mumkin; d) mulk huquqining muddatsiz ekanligi haqidagi qoida (FK, 164-modda) intellektual mulk huquqi ob'ektlariga nisbatan qo'llanilmaydi, binobarin aksariyat hollarda (nou-xaunga nisbatan istisnoni nazarga olmaganda) intellektual mulk huquqining amal qilishi qonunlarda belgilangan muddatlar bilan chegaralangan bo'ladi; e) qonunlarda belgilangan muddatlar utishi bilan intellektual mulk huquqi egasining ma'lum intellektual mulk ob'ektiga nisbatan huquqlari bekor bo'ladi va u umuminsoniy boylikka aylanib, har kim undan ma'lum shartlar asosida (muallifining shaxsiy huquqlariga rioya qilgan holda) tekin va ruxsatsiz foydalanishga haqli bo'ladi; f) intellektual mulk huquqi ob'ektlariga nisbatan mulk huquqini himoya qilishda vindikatsiya da'vosini qo'llab (FK, 228-modda) bo'lmaydi; j) intellektual mulk huquqi ob'ektlariga nisbatan odatdagi mulk huquqiy emas, balki mutlaq huquqlar haqidagi qoidalar qo'llanadi; h) intellektual mulk huquqining amal qilishi ayni vaqtda ma'lum hudud bilan chegaralangan bo'ladi. Masalan, ixtiroga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Patent idorasi tomonidan berilgan patent O'zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro konvensiyalar, u bilan xorijiy davlatlar o'rtasida tuzilgan ikki tomonlama shartnomalar asosida belgilangan hududlardagina amal qiladi; i) ko'pgina

intellektual mulk obyektlarining mualliflariga taalluqli shaxsiy huquqlar ham mavjud bo'lib, bu obyektlardan foydalanuvchilar mazkur huquqlarga rioya qilishi shart.

Intellektual mulk obyektlari qanday faoliyat mahsuli ekanligi, huquqiy rejimi va sh.k. xususiyatlariga qarab, quyidagi turlarga bo'linadi: a) intellektual faoliyat natijalari: fan, adabiyot, san'at asarlari; eshittirish tashkilotlarining ijrolari, fonogramma va eshittirishlari; elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumot bazalari; ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari; seleksiya yutuqlari; oshkor etilmagan axborot, shu jumladan, ishlab chiqarish sirlari (nou-xau) dan iborat; b) fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar (firma nomlari; tovar (xizmat) belgilari; tovar chiqarilgan joy nomi; v) FK da va b. qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalar (FK 1031-modda). Mazkur faoliyatning yangi mahsullariga, firmalar, tovarlar, ishlar, xizmatlarning yangi nomlari va alomatlariga nisbatan ham FK (4-bo'lim) da va b. qonunlarda intellektual mulkka oid belgilangan qoidalar qo'llanadi.

Intellekt—lotincha intellectus so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u insonning aqli va onggi hamda fikrlash qobiliyatini anglatadi. Hayotni, atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati ham intellekt hisoblanadi. Intellekt—insonni hayvonot olamidani ajratib turuvchi, farqini namoyon etuvchi asosiy belgi sanaladi. Hamda rivojlanishni sifat nuqtai nazaridan yangi pillapoyaga olib chiqadi.

Intellektual mulk huquqining yoshi 500 yildan sal ko'proq deyish mumkin, aniqrog'i esa intellektual mulk atamasi XVII-XIX asrlarda nazariyotchilar —huquqshunoslar va iqtisodchilar tomonidan vaqti-vaqti bilan ishlatilgan bo'lsada, ammo amaliy jarayonlarda ko'p ham ahamiyatli bo'lmagan yoki keng doirada doim ham qo'llanilmagan. Oradan biroz vaqt o'tib, ya'ni XX asrning ikkinchi yarmida, 1967-yilda Stokgolmda imzolangan Konvensiya munosabati bilan intellektual mulk atamasi keng qo'llanila boshlandi.

Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) ta'sis hujjatlariga ko'ra, intellektual mulk quyidagilarga tegishli huquqlarni o'zichiga oladi:

- adabiy, badiiy va ilmiy asarlar (dasturiy ta'minotni o'zichiga oladi);
- san'atkorlar faoliyati, ovoz yozish, radio va teleko'rsatuvlar;
- inson faoliyatining barcha sohalarida ixtirolar;
- sanoat namunalari;
- tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, savdo nomlari va tijorat belgilari;
- sanoat, ilmiy, adabiy va san'at sohalarida intellektual faoliyat bilan bog'liq boshqa

huquqlar.

Bugungi zamonaviy hayotning ko'pgina jabhalarida intellektual mulk tobora rivojlanib bormoqda. Uning jamiyatda roli ham ahamiyatli bo'lishga allaqachon ulgurib bo'lgan. Deyarli hech qanday sanoat mahsuloti unga intellektual mulkni kiritmasdan amalga oshirilmaydi. Ularning ba'zilarida bunday ob'yektlar soni o'nlab hisoblanadi. Misol uchun, bunday oddiy mahsulotni CD uchun quti sifatida olinsa ham, unda intellektual faoliyat natijasi mavjud. Intellektual mulk ob'yektlaridan foydalanish qoplanadigan asosda qurilganligi sababli, ushbu qutilarning barcha ishlab chiqaruvchilari patent egalari foydasiga «litsenziya to'lovlari» deb ataladigan to'lovlarni amalga oshirishlari shart. Shunday qilib, CD qutisi narxi nafaqat xomashyo va mehnat xarajatlariga, balki intellektual mulkdan foydalanish xarajatlariga ham kamayadi.

Har bir inson u yoki bu tarzda deyarli har kuni intellektual mulkka duch keladi. Aniqroq aytganda, uni himoya qilish va undan foydalanish masalalariga duch keladi. Shu va yuqoridagi berilgan ma'lumotlar hamda bildirilgan fikrlardan hozirgi vaqtda intellektual mulk huquqi faol rivojlangani va rivojlanayotgani, bunga axborot texnologiyalarining tarqalishi va internet makonida mualliflar manfaatlarini himoya qilish zarurati ta'sir ko'rsatayotganini xulosa qilish mumkin. Qo'shimcha sifatida aytish kerakki, zamonaviy olamda globallashib borayotgan har bir soha jarayonlarida intellektual faoliyat natijalarini himoya qilish masalasi hamisha dolzarb bo'lmog'i darkor. Bu himoyalash natijasida ushbu faoliyatga vaqt va moddiy jihatdan sarf etilayotgan kuch hamda uning egasining mehnati o'z qadr-qiyamatini yo'qotmaydi. Bundan tashqari intellektual mulk va uni himoya qilish Masalasi zamonaviy biznesning bir bo'lakchasi sifatida namoyon bo'ladi ham.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.04.2022 yildagi PQ-221-son
 2. Intellektual mulk huquqi: rivojlantirish istiqbollari/ Ma'sul muharrir: A.G'afurov.– T.:“Adolat”, 2012.68-bet;
 3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
 4. Zokirov I. B. Fuqarolik huquqi. – T.:TDYI 2009. – B.296.
 5. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. -T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2000
- Foydalanilgan internet manbalari:
1. <https://lex.uz/>
 2. <https://www.wipo.int/about-wipo/en/>
 3. <https://ima.uz/uz/services/idoralararo-hamkorlik/>